

## Allohga da'vat



13:00 / 02.01.2022 1919

Musoning haq soʻzlariga e'tiroz bildirishdan ojiz qolib, javob topa olmagach Fir'avn munozarada yutib chiqmoqchi bo'ldi:

- Ey Muso! Sen aytayotganingni eshitib qoldim, barcha olamlar Parvardigori kim o'zi?

Muso dedi:

U (Muso): «Agar anglamoqchi bo'lsangiz, U osmonlaru yer va ularning orasidagi narsalarning Robbidir», dedi.

Bu javobni eshitib darg'azab bo'lgan Fir'avn davra ahlini ham gij-gijlay boshladi.

- «Bas (Fir'avn) atrofidagilarga dedi: (Uning nimalar deyayotganini) eshityapsizlarmi?». Lekin Muso o'z so'zini to'xtatmasdan Fir'avnga ikkinchi zarbani berdi.

«(Muso) dedi: «(U) sizlarning Parvardigoringiz va avvalgi otalaringizning (ham) Parvardigoridir».

Fir'avnni g'azabi qattiqlashib, sabr qila olmadi: «Albatta sizlarga yuborilgan rasullaringiz aniq majnundir».

Muso alayhissalom esa o'z so'zini hamon davom qilardi: «(Muso) dedi: Agar sizlar aql yurgizib ko'rsangizlar, (Alloh) mag'ribu mashriq va ular o'rtasidagi

(barcha) narsaning Parvardigoridir». Fir'avn Muso alayhissalomni o'zi uchun achchiq bo'lgan bu masaladan chalg'itishni niyat qildi. U xalqni Musoga qarshi qilib qo'yimoqchi bo'ldi.

«(Fir'avn) dedi: «U holda avvagi avlodlarning holi nedur?» (Ya'ni Parvardigoring ularni ham azoblaganmi?)

Fir'avn o'zicha o'yladi; Agar Muso «avvalgi avlodlar haq ustida bo'lganlar» desa, «ular ham but-sanamlarga sig'inishgan» deyman.

Agar «ular adashgan nodon kimsalar bo'lgan» desa, majlis ahlining g'azabi keladi va u kishilar otalarini haqoratlangan hisoblaydilar.

Lekin Muso Fir'avndan aqlliroq edi. Parvardigori unga ilm va hikmat bergandi:

«(Musu) aytdi: «Ular haqidagi bilim Parvardigorim huzuridagi Kitobda - Lavhul Mahfuzdadir. Parvardigorim adashmas va unutmaz».

So'ng Muso shu paytgacha Fir'avn qo'rqib-qochib kelayotgan masala haqida so'z boshladi:

Parvardigorim adashmas va unutmaz. «U zot yerni sizlar uchun beshik qarorgoh qilib qo'ydi va unda yo'llar paydo qildi hamda osmondan suv (yomg'ir-qor) yog'dirdi».

Lom-lim deya olmay qolgan Fir'avn g'azablangan va javobdan ojiz qolgan shohlar tomonidan aytiladigan ma'lum jumlalarni yana bir bor takrorladi.

«(Fir'avn) dedi: «Agar mendan o'zga ilohni (o'zingga iloh qilib) olsang, albatta men seni zindonbandlardan qilur.

***Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy***

***Tarjimon Anvar Ahmad***